

YAXLIT PEDAGOGIK JARAYON

*Asqarjonova Shodiya**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti**pedagogika fakulteti 1- bosqich talabasi**[Tel:+998-77-178-82-07](tel:+998-77-178-82-07)*

Annotatsiya: *Yaxlit pedagogik jarayon tushunchasi va uning tuzilishi, pedagogik jarayon qonuniyatlari va tamoyillari, pedagogik jarayonda tarbiyaning maqsadi, o'qituvchining darsga tayyorgarligi, oliy ta'lim tizimi, ta'limning asosiy vazifalari, ta'lim jarayoni.*

Kalit so'zlar: *didaktika, ta'limning asosiy vazifalari, kompetensiya, raqamli pedagogika, vositalar, ta'lim prinsiplari.*

Аннотация: *Понятие общего педагогического процесса и его структура, законы и принципы педагогического процесса, цель воспитания в педагогическом процессе, подготовка учителя к уроку, система высшего образования, основные задачи образования, учебный процесс.*

Ключевые слова: *дидактика, основные задачи образования, компетентность, цифровая педагогика, инструменты, принципы образования.*

Abstract: *The concept of a holistic pedagogical process and its structure, the laws and principles of the pedagogical process, the purpose of education in the pedagogical process, the teacher's preparation for the lesson, the higher education system, the main tasks of education, the educational process.*

Keywords: *didactics, the main tasks of education, competence, digital pedagogy, tools, principles of education.*

Kirish: Ta'lim jarayoni - ma'lumot mazmuni hamda unga oid faoliyat usullarini o'quvchilarning o'zlashtirishi uchun o'qitish va o'qish faoliyatlarining real aloqalashuvi, sababli bog'lanishi, bir - biriga muvofiqlashuvi asosida

ta'limning aktlar, sikllar shaklida makon va zamon harakatlanadigan maqsadga muvofiq faoliyatidir. Pedagogik jarayon maqsadli va manzil yo'naltirilgan faoliyat, jarayon bo'lib, muayyan ta'limiy, rivojlantirish maqsadiga yo'naltirilgan, kattalarning pedagogik faoliyati ta'sirida tashkiliy shakllantirilgan va mazmunan boyitilgan hamda tarbiyachining yo'naltiruvchi va yetakchi rahbarlik roli natijasida bolaning o'z - o'zini taraqqiy etishidir.

Hech bir fan yakka holda o'zi mukammalikka erisha olmaydi. U boshqa fanlar bilan aloqad, ularning yutuqlardan foydalangan holda mazmunan boyib boradi. Xuddi shunidek, pedagogika fani ham hozirgi kunda umumbashariyat tomonidan yaratilgan bilimlar va kelajak haqidagi ma'lumotlarga tayanadi. O'qituvchi o'quvchilarga bilim berish, ma'lumotli qilish, tarbiyalash maqsadida unga tizimli ta'sir ko'rsatadi. Bunda psixologiya va ijtimoiy omillarga asoslanadi. Ya'ni ta'limning samarasini bilish uchun o'quvchining sezgi, idroki, tasavvur, diqqat va tafakkur fikrlash jarayonining qanday kechayotganini bilishga asoslanib ta'sir ko'rsatish rejasi belgilaydi. Bunda o'qituvchi yosh davrlari psixologiyasini chuqur bilishi talab etiladi. Buni yaxshi bilgan o'qituvchi har bir bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib, yondashdi va unga samarali ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik jarayon qonuniyatlari va tamoyillari — bu ta'limtarbiya jarayonini boshqarish, tashkil etish va samaradorligini oshirishda asos bo'lib xizmat qiluvchi qonun-qoidalar va umumiy tamoyillar yig'indisidir.

Ta'lim jarayoni - ma'lumot mazmuni hamda unga oid faoliyat usullarini o'quvchilarning o'zlashtirishi uchun o'qitish va o'qish faoliyatlarining real aloqalashuvi, sababiyatli bog'lanishi, har biriga muvofiqlashuvi asosi ta'limning aktlar, sikllar shaklida makon va zamonda harakatlanadigan maqsadga muvofiq faoliyatidir. Ta'limning asosiy vazifalari shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson bilish faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi, ya'ni ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlarini o'stirishdir. Pedagogik jarayon qonuniyatlari – bu

ob'ektiv mavjud bo'lgan, takrorlanadigan, barqaror hodisalar orasidagi ma'lum aloqadorlik, mazkur jarayonning alohida tomoni.

Qonuniyatlar nima va pedagogik jarayonda qanday bog'langan, nima bilan u bog'liqlikda ekanligini ko'rsatadi. Pedagogik taraqqiyot sifatidagi bu qadar murakkab, katta va dinamik tizimda ko'plab turli tavsifiy aloqal namoyon bo'ladi. Zamonaviy pedagogikada pedagogik jarayon qonuniyatlarning yagona tasni mavjud emas. Yagona pedagogik jarayon qonuniyatlari singari tamoyillari masalasida ham turli qarashlar mavjud. Hatto ba'zi pedagoglar ularni qonuniyat sifatida e'tirof etishga moyildirlar. Biroq yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, qonuniyatlar ob'ektiv, eng muhim, barqaror, o'zgarishda, shu bilan birga, aniq sharoitlardagi harakatni ifoda etadi. Pedagogik jarayon qonuniyatlaridan uni samarali tashkil qilishga nisbatan muayyahi muhim talablar kelib chiqadiki, buni tamoyillar deb ataymiz. Yagona pedagogik jarayon tamoyillarining ham hozirgacha turli tasnifla adabiyotlarda o'z aksini topgan. Agar ularni sinchiklab o'rganib chiqilsa, tasniflarning bir-biri yaqinligini ko'rish mumkin. Pedagogika tarbiya, ta'lim hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlar majmuasi. Pedagogika institutlari va ayrim boshqa o'quv yurtlarida mutaxassislik dasturi asosida o'rganiladigan o'quv predmeti ham pedagog deb yuritiladi. Pedagogika fan sifatida bola tarbiyasining nazariy asoslari bilan shug'ullangan. Zamonaviy pedagog bolalar bilan birgalikda kattalarning ham o'quv-tarbiyaviy, madaniy hamda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi bilan shugullanishni ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Pedagoglarga barkamol shaxs ma'naviyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida yondashiladi. Pedagog tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o'quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo'sinlarini belgilab beradi. Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish Pedagogning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash Pedagogikanidagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi.

Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatga doyr qarash va ko'nikmalarning shaxs sifa-tiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi. Insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indi-sini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat o'qitish tushunchasini ifoda etadi. O'qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi. Tarbiyalash va o'qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatlari shakllantiriladi. Shaxe tarbiyalash va o'qitish orqali o'zida oldin bo'lmagan ma'naviy-intellektual sifatlarga ega bo'ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzluksiz davom etadi va uning rivojlanishiga omil bo'ladi. Pedagoglik kasbining paydo bo'lishiga e'tibor qaratilsa, shu narsa ko'rinadiki, dastlab uning doirasida differentsiallashtirish va integratsiyalash jarayoni chegaralangan bo'lsa, key-inchalik ochiqchasi ta'lim va tarbiya qarama-qarshi qo'yila boshladi: o'qi-tuvchi o'qitadi, tarbiyachi esa tarbiyalaydi. Lekin XIX asrga kelib, taraqqiy-parvar pedagoglarning ishlarida argumentlarni asoslashda ob'ektiv nuq-tai nazardan ta'lim va tarbiyaga bir butun, yaxlit hodisa sifatida qarala boshladi. I.F. Gerbartning fikricha, tarbiyasiz ta'lim vosita bor, lekin maqsad yo'q, ta'limsiz esa maqsad bor, vosita etishmaydi.

Nemis pedagogi A. Disterveg, ta'limni tarbiyaning bir qismi sifatida qaraydi: "Ta'lim printsiplari bor ekan, hamisha tarbiya printsiplari ham bo'ladi, yoki aksincha". Pedagogik jarayonning yagonaligi g'oyasi K.D Ushinskiy g'oyalarida chuqur ifodalangan. Ta'limning asosiy vazifalari shaxsni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat. Ta'lim inson bilish faoliyatining bir turi sifatida bir necha ma'noni bildiradi, ya'ni ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish hamda ularning qobiliyatlari o'stirishdir. Ta'lim orqali yosh avlodga insoniyat tajribasi orqali to'plangan bilimlar beriladi, zaruriy ko'nikma va malakalar hamda e'tiqodlar shakllantiriladi. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib, u ikki tomonlama xarakterga ega, ya'ni unda ikki -

o'qituvchi va o'quvchi faol ishtirok etadi. O'qituvchi aniq maqsadni ko'zlab, reja va dastur asosida bilimlar, ko'nikma va malakalarni singdiradi, o'quvchi esa uni faol o'zlashtirib oladi. Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyat hisoblanadi.

Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqa avlodga o'tadi. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning , umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intizomlar tizimiga ega bo'lishi lozim. Yoshlarda axloqiy xislatlar bilan birgalikda umuminsoniy fazilatlarini ma'naviy sifatlarini tarbiyalashda pedagogik diagnostika va korrektsiyalash faoliyatiga murojaat etish zarur. Buning uchun eng avvalo, inson fazilatlarining o'zaro munosabatlarini va o'rnini aniqlab olmoq lozim. Ma'naviyat esa aqliy, axlowiy, huquqiy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zahirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida inson ijobiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim To'g'risida "gi Qonuni 2020- yil 23-sentyabr.
- 2.X. Ibragimov, M.Quronov, D.Ibragimova " Pedagogika nazariyasi va tarixi"
Asari Sahhof 2024
- 3.X.Ibragimov, M. Quronov " Umumiy pedagogika " Sahhof 2023